

## BOSH MIYA O'SMALARI

*Ro'ziyeva Feruza Beknazar qizi  
Hafizova Mexribon Abduxalimova  
Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi  
jamoat salomatligi texnikumi*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda bunday kasalliklar paydo bo'lishini aniq ko'rsatib beradigan sinamalar mayjud emas. To'g'ri, ayrim genetik tahlillarga ko'ra qaysidir inson bunday kasalliklarga chalinishi ehtimoli yuqori ekanligini taxmin qilish mumkin. Biroq bu bir taxminligicha qoladi, kasallikka chalinish aniq fakt ekanligini bildirmaydi.

### BRAIN TUMORS.

**Abstract:** Today, there are no tests that can clearly show the occurrence of such diseases. It is true that, according to some genetic analyses, it is possible to assume that a person has a high probability of contracting such diseases. However, this is only a guess, it does not mean that the disease is a definite fact.

Bosh miya o'smalari organizmda uchraydigan umumiy o'smalarning 6 %ini tash kil etadi. Bu ka-sallikning uchrash chastotasi har 100 ming odamdan 10 dan 15 ta ins onda bo'ladi. Odatda bosh miya o'smalari deganda – kalla suyagi ichida hosil bo'ladi gan har qanday o'smalar tushuniladi, masalan miya to'qimalaridagi o'smalar, nerv t olalaridagi, qon tomirlardagi, miya pardalaridagi, limfa tomirlari-dagi va bezlarda (gi pofiz va epifiz) uchraydigan o'smalar. Shuning uchun bunday o'smalar ikkiga: miya ichi va miyadan tashqaridagiga bo'linadi.

Bosh miya o'smalari har qanday yoshda uchraydi, hatto tug'ma ham bo'lishi mumkin. Ammo bolalar orasida uchrash chastotasi kam, har 100 ming bolaga 2-4 hol atlar to'g'ri keladi. Bosh miya o'smalari birlamchi – miya to'qimasining o'zidan hosil bo'lishi, yoki ikkilamchi boshqa organlarda hosil bo'lgan o'smalarning limfoge ni va gemitogen yo'l bilan metastazlaridan hosil bo'lishi mumkin. Ikkilamchi o'smal ar birlamchiga qaraganda 5-10 marta ko'proq uchraydi.

Bosh miyada o'smalar paydo bo'lishiga, barcha turdag'i o'sma kasalliklari kabi radiatsiya, turli xildagi toksik moddalar va zararlangan ekologik hudud sabab bo'ladidi. Bolalarda tug'ma miya o'smalari kelib chiqish xavfi yuqoriroq, embrionlik paytidagi qandaydir omil ta'sirida yuzaga kelishi mumkin. Bosh chanog'i va miya travmasi o'sma kasalliklari kelib chiqishiga va uning o'lim bilan tugashiga olib keluvchi xavf omilidir. Ko'pincha bosh miya o'smalari boshqa kasalliklarni davolash maqsadida o't-kazilgan nur terapiyalari asorati sifatida kelib chiqishi ham mumkin.

Birlamchi serebral o'smalarga neyroektodermal o'smalar: astrositar o'smalar (as trositoma, astrob-lastoma), oligodendrogialin o'smalari (oligodendrogloma, oligoastro glioma), ependimar o'smalar (epindimoma, xorionodik papilloma), epifiz o'sma lari (pinesitoma, pineoblastoma), nayronal o'smalar (ganglioneyroblastoma, ganglios toma), embrional va noaniq o'smalar (medulloblastoma, spongioblastoma, glioblastoma). Bundan tashqari gipofiz bezining o'smalari (adenoma), nerv tolalari o'smalar (neyrofibroma, nevrinoma), miya pardalari o'smalar (meningioma, ksantomatoz o'sma, melanotik o'sma), miya limfa tugunlari o'smalar ham farqlanadi.

Metastatik o'smalar 10-30 % hollarda aniqlanadi. Erkaklarda ikkilamchi metasta zlar natijasida bosh miyada paydo bo'ladigan o'smalardan, o'pka, kolorektal, buyr ak o'smalaridan tarqalgani uchrasa, ayollarda esa – , melanoma, kolorektal o'smalar m etastazi oqibatida miya o'smalari uchraydi. 85 % ga yaqin metastaz oqibatida kelib c hiqqan o'smalar miya ichida paydo bo'ladi. Kalla suyagi chuqurcha-sida ko'pincha ba chadon tanasidan tarqalgan o'smalar, prostata bezi o'smalarini va oshqozon ichak ti zimi yomon sifatli o'smalari metastazi natijasida paydo bo'ladi.

Bosh miya o'smalarining erta belgilari miyaning qaysi qismida o'sma hosil bo'lgan bo'lsa o'sha joydagi simptomlar bilan boshlanadi. Ular quyidagi mexanizm asosida ketadi: o'smaning fizik va kimyoviy ta'siri, miya qon tomirlarining zararlanishi, tomirlarning ezilishi hisobiga ishemiya kelib chiqishi, nerv tolalarining va hujayralarning ezilishi hisobiga kamchiliklar paydo bo'la boshlaydi. Aynan o'sma paydo bo'lgan joydan miya hujayralari qo'zg'alishi, uning funksiyasi buzilishi boshlanadi (nevrologik yetishmovchilik).